

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQLAR TUSHUNCHASI VA SOLIQ
TIZIMI

Nomozov Xusan Axmat o'g'li

*TerDU Yuridik fakulteti Jinoyat huquqi va
fuqarolik protsessi kafedrasida o'qituvchisi*

Musurmonova Hulkar

Yuridik fakulteti 2-kurs 424-guruh talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi va uning bugungi holati, soliqlarning tarkibiy tuzilishi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan soliq islohotlari va davlatimizdagi mavjud soliq turlari jumladan Estoniya davlati raqamli soliq modeli va mamlakatimizdagi soliq modellari taqqoslanadi. Xalqaro Estoniya ilg'or tajribasiga tayangan holda soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish, stavkalarni optimallashtirish va "yashirin iqtisodiyot" ulushini kamaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: soliqlar, soliq tizimi, Soliq kodeksi, islohotlar, Estoniya modeli, raqamlashtirish, QQS, fiskal siyosat, foyda solig'i.

KIRISH. Bugungi kunda mamlakatimizda soliqlar iqtisodiy islohotlarimizning markazida turadi. Soliqlar orqali iqtisodiyot, mamlakatimizning barqaror moliyaviy holati ta'minlanadi. Soliqlar – bu davlatning mavjudligi va uning ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalari bajarilishining moliyaviy asosi hisoblanadi. Shu o'rinda soliqlar davlat subyekt sifatida faoliyat yuritishi uchun uning zaruriy

belgilaridan biridir. Ya'ni davlat o'zining iqtisodiy holatini soliqlar orqali ushlab turadi. Soliqlar va ularni to'lash majburiyligi mamlakatimizda bosh qomusimiz konstitutsiyamizning 63-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Bu esa soliqlar ularni to'lovchi barcha uchun majburiylikni anglatadi. Soliq munosabatlari, soliqlar turlari va davlatimizdagi soliq tizimi yangi tahrirda qabul qilingan Soliq kodeksi normalari orqali tartibga solinadi. Yangi tahrirdagi soliq kodeksi 2019-yil 30-dekabrda qabul qilingan va 2020-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan.¹ Ushbu soliq kodeksi respublikamizdagi soliqlar faoliyati va uni to'lovchi shaxslar va davlatimizdagi soliq majburiyatlarini tartibga solib turadi.

Amaldagi soliq kodeksiga ko'ra, soliqlar – davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lanadigan majburiy, beg'araz to'lov hisoblanadi. Qonunchiligimizga ko'ra soliq va yig'imlarni joriy qilish Oliy Majlis tomonidan amalga oshiradi. Respublikamizda soliqlar va yig'imlar o'zaro farq qiladi. Soliq kodeksining 16-moddasiga ko'ra yig'im ham soliqlar kabi majburiy beg'araz to'lov hisoblanadi. Lekin yig'im to'laganda fuqarolar ma'lum bir huquq oladi. Ya'ni muayyan bir vakolatni amalga oshirish huquqini oladi. *Masalan:* Avtomobil sotib olganingizda uni ro'yxatdan o'tkazish uchun yig'im to'laysiz. To'lamasangiz — xizmat ko'rsatilmaydi (mashina sizning nomingizga o'tmaydi). Soliqlarni to'laganingiz uchun esa davlat sizga hech qanday xizmat ko'rsatmaydi. *Masalan:* Ish haqingizdan olinadigan daromad solig'i evaziga davlat sizga shaxsiy xizmat ko'rsatmaydi, lekin bu pulga shifoxonalar yoki yo'llar quriladi.

O'zbekiston Respublikasida soliqqa tortishning prinsiplari Soliq kodeksining 7-moddasida belgilangan. Kodeksga ko'ra soliq solish majburiylik, aniqlik va soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan hamkorligi, adolatlilik, soliq tizimining yagonaligi, oshkoralik va soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsiplariga asoslanadi.²

¹ lex.uz/acts/-4674902

² Soliq kodeksi

Bu prinsiplar mamlakatimizda amalda bo'lgan soliqlar va soliq to'lovchilarning huquqlari va soliqlar tizimini tartibga solib turuvchi vositalardan biri hisoblanadi. Soliq tizimining majburiyligi soliqlar barcha uchun majburiylikini ifodalasa, soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi bu- xalqaro davlatlardagi kabi bizda ham soliq sohasidagi barcha bartaraf etib bo'lmaydigan qarama-qarshiliklar soliq to'lovchining foydasiga hal qilinishini anglatadi.

Soliq kodeksiga ko'ra mamlakatimizda 10 ta soliq turi mavjud. Bular: 1)

1) qo'shilgan qiymat solig'i;

2) aksiz solig'i;

3) foyda solig'i;

4) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

5) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

5¹) foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'i;

6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

7) mol-mulk solig'i;

8) yer solig'i;

9) ijtimoiy soliq.³

Ushbu soliq turlari respublikamizda barcha shaxslar uchun majburiy hisoblanadi. Respublikamizda soliq munosabatlari subyektlari soliq to'lovchilar, soliq agentlari va soliq organlaridir.

Soliq to'lovchilar yuridik va jismoniy shaxslar. Soliq agentlari esa zimmasiga soliqlarni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish va budjet tizimiga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar. Soliq organlari esa – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek, tumanlar, shaharlar va shahardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari;⁴

³ lex.uz/acts/-4674902

⁴ 1720769314.pdf

bojxona organlari – O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo‘yicha boshqarmalari, “Toshkent — AERO” maxsus bojxona kompleksi va bojxona postlari;

yig‘imlarni undirish funksiyasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar hisoblanadi.

Respublikamiz hududida maxsus soliq rejimlari ham mavjud:

- 1) aylanmadan olinadigan soliq;
- 2) mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchilariga soliq solishning alohida tartibi;
- 3) maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarga soliq solishning alohida tartibi;
- 4) O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq solishning alohida tartibi;

Bular asosan soliq to‘lovchilarning ayrim toifalari uchun belgilanadi. Atrim toifalari deyilganida, asosan, kichik biznes vakillari, maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari, qishloq xo‘jaligi mahsulotini ishlab chiqaruvchilar va alohida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar kiradi. Misol uchun aylanmadan olinadigan soliqni kichik biznes vakillari ya‘ni Yillik jami daromadi **1 milliard so‘mdan oshmagan** yuridik shaxslar.

Yillik daromadi **100 million so‘mdan 1 milliard so‘mgacha** bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar (YaTT) lar to‘lashi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasida soliq rezidentlari deb egishli maqomi o‘ziga nisbatan belgilangan soliq davri boshlanadigan yoki tugaydigan har qanday ketma-ket 12 oylik davr davomida jami 183 kalendar kundan ko‘proq O‘zbekiston Respublikasida haqiqatda bo‘lgan jismoniy shaxslar e‘tirof etiladi. Ya‘ni 183 kun davomida respublikamiz hududidagi shaxslar soliq to‘lovchilardir.

Respublikamizda yirik soliq to'lovchilar toifasi ham mavjud. Bular O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan mezonlardan kelib chiqqan holda, soliq ma'muriyatchiligiga mansub bo'ladigan ayrim toifadagi yuridik shaxslardir. Ya'ni ular asosan mamlakatimiz iqtisodiyotining eng katta ustunlari hisoblanadigan korxonalaridir.

Bularga yirik sanoat gigantlari, moliya va bank sektorlari, Yirik ishlab chiqaruvchilar va savdo tarmoqlarini, aksizli korxonalar va shu kabilarni misol qilib keltiramiz.



5

Yuqoridagi jadvalda 2023-yilda Top 20 ta eng ko'p yirik soliq to'lovchilar ro'yhati berilgan. Bunda eng yuqori o'rinni "Navoiy kon metallurgiya Aj" egallaydi. Chunki bu aksiyadorlik jamiyati dunyodagi eng yirik oltin ishlab chiqaruvchilardan biri (top-5 talikka kiradi). Oltin esa jahon

⁵ Kun.uz.sayti

bozorida doimiy qimmatbaho va likvidli aktivdir hisoblanadi va bu aksiyadorlik jamiyati yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'laydi.

Xalqaro davlatlar jumladan Estoniya davlati soliq qonunchiligi bo'yicha dunyodagi eng ilg'or va raqobatbardosh soliq tizimlaridan biriga ega. Uning soliq qonunchiligi soddaligi, raqamlashganligi (e-Tax) va biznes uchun yaratilgan noyob imtiyozlari bilan ajralib turadi.⁶ Estoniya davlati soliq tizimi butun xalqaro hamjamiyat ichida tushunarli qilib tuzilgan. Estoniyada soliqlarning uchta darajasi amal qiladi. Bular davlat soliqlari, ijtimoiy soliqlar va mahalliy sug'urta to'lovlari.

Estoniya davlatida eng mashhur soliq turi bu- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisoblanadi. Bunda eng e'tiborli jihati agar kompaniya foydani biznesga qayta investitsiya qilsa, stavka — **0%**. Soliq (22%) faqat foyda dividend sifatida yechib olingandagina to'lanadi. Bu Estoniya davlatida yuridik shaxslarga ma'lum imtiyoz va afzalliklar yaratadi. Estoniya davlatida QQS (Qo'shilgan qiymat solig'i) miqdori 22% tashkil qiladi.

Estoniyada xalqaro darajadan andoza olgan holda onlayn soliq rejimi amal qiladi. **e-Tax (e-Maksuamet)** — dunyodagi eng samarali va foydalanuvchi uchun qulay raqamli tizim hisoblanadi. Uning yordamida mamlakatdagi soliq deklaratsiyalarining **95% dan ortig'i** elektron shaklda topshiriladi. Bu esa fuqarolardan ortiqcha vaqt talab qilmaydi. Bu tizimning afzalligi daromadlarni deyarli 100% o'zi hisoblab, tayyor deklaratsiya chiqarib berishi hisoblanadi ya'ni barcha soliqqa oid ma'lumotlar avtomatik ravishda inson omilisiz tayyorlanadi. Bu esa Estoniya soliq tizimining shaffofligini ta'minlaydi va fuqarolarning ortiqcha sarsongarchiliklarining oldini oladi. Estoniya soliq tizimining eng muhim jihatlaridan yana biri bu – **E-Residency (Elektron rezidentlik)**. Ushbu tizim tufayli siz dunyoning istalgan nuqtasidan turib Estoniyada biznes yuritish va

⁶ [taxes and legal - Work in Estonia](#)

solliqlarni onlayn boshqarish mumkin. Bunda sizga Estoniyaga kelmasdan turib kompaniya ochishingiz va hisobot topshirishingiz imkoniyati yaratiladi.

Bizning respublikamizdagi **My.soliq.uz (Elektron soliq xizmatlari portali)** Estoniya soliq tizimining muqobil varianti hisoblanadi. Chunki bizdagi soliq tizimi ham xalqaro tajriba jumladan Estoniya davlati tajribasiga tayanadi. Estoniya va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida ikki tomonlama soliqqa tortishdan saqlanish, daromad va sarmoya soliqlarini to'lashdan bosh tortishning oldini olish to'g'risida Konvensiya (Nyu-York, 2012 yil 28 sentyabr)⁷ buning yorqin isbotidir. Ushbu konvensiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.03.2013 y. PQ-1932-son qarori bilan tasdiqlangan. Bunda asosan ikki mamlakat soliq tizimi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va soliqlarni to'lashdan bosh tortishning oldini olish bo'yicha muhokama va takliflar ilgari surilgan.

Rivojlangan Estoniya davlati va mamlakatimizdagi soliq munosabatlari o'zaro takomillashgan va davlatimiz ham soliq tajribasi sifatida xalqaro davlatlar tajribasidan foydalanadi. Respublikamizdagi soliq tizimi ham Estoniya davlati tajribasi asosida to'liq avtomatlashtirilmoqda. Lekin bizdagi elektron soliq tizimida ko'p malumotlar avtomatik tarzda tayyorlanmaydi. Masalan:

Sotuvchi o'zining ichki dasturida (masalan, 1C) tovarning chiqib ketishini qayd etadi. Soliq portalida Buxgalter qo'lda soliq portaliga kiradi, mijozning STIRini yozadi, tovarning MXIK kodini (minglab kodlar ichidan) qidirib topadi va Elektron hisob-faktura (EHF) shakllantiradi.

Bank dasturida Pul kelib tushgach, buxgalter bank-klientga kirib, to'lovni ko'radi va uni yana qo'lda 1C dasturidagi hisob-faktura bilan bog'laydi. Tekshirish agar soliq portali va bank ma'lumotlarida 1 tiyin farq bo'lsa, tizim

⁷[https://buxgalter.uz/oz/doc?id=331470_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_hukumati_bilan_estoniya_respublikasi_hukumati_o%E2%80%98rtasida_ikki_tomonlama_soliqqa_tortishdan_saqlanish_daromad_va_sarmoya_soliqlarini_to%E2%80%98lashdan_bosh_tortishning_oldini_olish_to%E2%80%98g'risida_konvensiya_\(nyu-york_2012_yil_28_sentyabr\)_\(o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidentining_07_03_2013_y_pq-1932-son_qarori_bilan_tasdiqlangan\)&prodid=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana#:~:text=O%CA%BBzbekiston%20Respublikasi%20Hukumati%20bilan%20Estoniya%20Respublikasi%20Hukumati.](https://buxgalter.uz/oz/doc?id=331470_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_hukumati_bilan_estoniya_respublikasi_hukumati_o%E2%80%98rtasida_ikki_tomonlama_soliqqa_tortishdan_saqlanish_daromad_va_sarmoya_soliqlarini_to%E2%80%98lashdan_bosh_tortishning_oldini_olish_to%E2%80%98g'risida_konvensiya_(nyu-york_2012_yil_28_sentyabr)_(o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidentining_07_03_2013_y_pq-1932-son_qarori_bilan_tasdiqlangan)&prodid=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana#:~:text=O%CA%BBzbekiston%20Respublikasi%20Hukumati%20bilan%20Estoniya%20Respublikasi%20Hukumati.)

"qizil" yonadi. Buxgalter soatlab xatoni qidirib, hammasini qaytadan solishtirish chiqadi. Bu esa tizimning to'liq avtomatlashtirilmaganligidir. Bu jarayon Estoniyada quyidagicha amalga oshiriladi: Sotuvchi tovarni sotadidi va tugmani bosadi. Ichki tizim avtomatik ravishda soliq idorasiga ma'lumot yuboradi. Hech qanday "MXIK kodi" qidirish shart emas, chunki tizim hamma narsani o'zi taniydi. Bank bilan integratsiya qilinadi ya'ni bank ma'lumoti va soliq ma'lumoti bitta bazada turadi. Pul tushishi bilan tizim avtomatik ravishda "Soliq to'landi" deb belgi qo'yadi. Natijada esa buxgalter bu jarayonga umuman aralashmaydi. U faqat oy oxirida tizim tayyorlagan deklaratsiyani ko'zdan kechirib, "Tasdiqlash" tugmasini bosadi. Bu fuqarolar uchun qulay hisoblanadi.

Estoniya davlati soliq qonunchiligi va soliq sohasidagi tajribasidan kelib chiqib, mamlakatimiz hududidagi soliq va soliqlar tizimlarini bosqichma-bosqich avtomatlashtirgan holda iqtisodiyotimizga olib chiqishimiz kerak. Bu kabi iqtisodiy o'sishlar ya'ni soliq tizimining shaffof va samaradorligi "yashirin iqtisodiyot" ning oldini oladi. Estoniya tajribasiga tayangan holda davlatimiz hududidagi soliq tizimi va bazasini to'liq avtomatlashtirishni va O'zbekistonda ham masofaviy IT va konsalting xizmatlari uchun "Raqamli rezidentlik (e-Residency) formatini kengaytirish kerak. Bu orqali O'zbekiston ham Estoniya davlati kabi xorijiy davlat fuqarolarini O'zbekiston soliq rezidentligiga jalb qilishi mumkin. Bu esa xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda ma'lumotlar almashinuvi va davlat iqtisodiyoti uchun yirik soliq to'lovchilar toifasi va ularning hamkorligi kengaytiriladi. O'z navbatida bu iqtisodiy o'sish garovi bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. lex.uz/acts/-4674902
2. Soliq kodeksi
3. lex.uz/acts/-4674902
4. [1720769314.pdf](#)
5. Kun.uz.sayti
6. [taxes and legal - Work in Estonia](#)
7. Soliq huquqi. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma / A.S. Jo‘rayev, N.A. Artikov; O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi. — T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2010,- 144 bet. I. Artikov N.A